Key words: special pedagogy, deaf pedagogue, inclusive education, ratification, UNICEF

Ular ham bizning farzandimiz!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoniga O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlarini yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi o‘tib kelayotgan yosh avlodni sifatli ta’lim va tarbiya olishiga qaratilgan.

Bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etilishi kerak, ho‘sh bu borada bizning faoliyatimiz qay darajada?

UNICEF inklyuziv ta’limni O‘zbekiston tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’limni vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim tamoyili imkoniyati cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytishi uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Yutuqlarimiz:

- UNICEF Xalq ta’limi vazirining defektolog va psixologlarning inklyuziv ta’limdagi roli to‘g‘risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishga ko‘maklashdi;
- UNICEF ning ko‘magi inklyuziv ta’lim bo‘yicha 5 yillik ish rejasi ta’lim sohasining umumiy rejasiga kiritilishini ta’minladi.

Istiqboldagi rejalar:

- tanlab olingan mintaqalarda inklyuziv ta’lim uslublarini tajriba sifatida joriy etish uchun Xalq ta’limi vazirligiga texnik yordam ko‘rsatish;

-maktabga qatnamaydigan yoki shunday xatarga uchrayotgan bolalarga alohida e'tibor qaratadigan viloyat bolalar rivojlanish markazlarida tegishli o'quv dasturlarini joriy etish;

-o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan va imkoniyati cheklangan bolalar oddiy maktablarda bilim olishlari mumkin bo'lishiga qaratilgan alohida dasturlarni "Speshial Olimpiks" ko'magida O'zbekistonda tajriba sifatida joriy etish.

Inklyuziv ta'lim uchun 5 yillik reja:

Jamiyat va maktablar imkoniyati cheklangan bolalarni qabul qilishga tayyormi?

O'zbekistonda umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etish reja qilinmoqda. Keyingi o'quv yilidan boshlab alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilgacha esa 40 foizi odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Inklyuziv ta'lim bilan bog'liq qator muammolar va xavotirlar ham mavjud. Oxirgi paytda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda, ko'pchilik bu tushunchani nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bila bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos. "Aslida faqat bu emas. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab, bir xil sinfxonada, bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. Kam ta'minlangan oilaning farzandi kambag'al oiladan bo'lgani uchun ta'mirlanmagan maktabga borishi kerak emas",-deydi O'zbekiston Nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov.

Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. 2020-yil 30-oktyabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanalgan;

-alohida ta'limga ehtiyoji bor bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

-alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalar zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan;

-alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar farzandlarini umumta'lim muassasalarida o'qitishi mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

-alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

-pedagogika yo'nalishidagi OTMLar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

-pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugunki kunda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi ta'lim oladi. 2020-yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o'quvchilar inklyuziv ta'lim bilan qamrab olingan.

Prezident qarori bilan 2025-yilgacha inklyuziv umumta'limni bosqichma-bosqich joriy etish masalasi qo'yilgan. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga kelishi uchun to'siqsiz muhit yaratish, yangi quriladigan maktablarni xuddi shunday sharoitlar bilan qurish, pedagog kadrlar tayyorlash, o'quv bazasini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Keyingi o'quv yillarda shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish, tayanch korreksion sinf ochish reja qilingan. Agar bizda ham xuddi chet eldagi kabi imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumta'lim

maktablarida sharoit yaratilsa, juda yaxshi bo'lardi, lekin bizda ba'zi muammolar bor. Masalan, kadrlar masalasi. Ko'rish qobiliyatida muammosi bor bolalar bilan tiflopedagog alohida ishlashi kerak. Bizda hali hatto oily ta'limda tiflopedagogikani o'qitadigan kadrlarning o'zi yo'q. Bundan tashqari o'qituvchilarni ham ruhan tayyorlab olish kerak.

Buning uchun yurtimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish kerak. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, deb yozilgan, lekin hanuzgacha bunday tartib ishlab chiqilmagan. Yana bir muhim masala bu o'qituvchilarning tayyorgarligi, mutaxassislar yetishmasligi hamda umumta'lim maktablari binolarida kerakli sharoitlar yaratilmagani. Inklyuziv ta'lim joriy qilish talablarini nogironligi bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari, maxsus maktab-internat pedagoglari, nogironlar tashkiloti vakillari bilan birgalikda ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa o'rnida aytish joizki; rejalarga qarasak hammasi chiroyli; 2025-yilgacha bo'lgan maqsadlar ham huddi nazarda tutilgandek amalga oshirilsa, imkoniyati cheklangan bolalar boshqa bolalar kabi bir xil sharoitda ta'lim olishadi, ularga darsliklar, o'quv qo'llanmalar yetmay qolishi kuzatilmaydi. Bunday bolalar ham sog'lom bolalar kabi qiynalmasdan maktabga borishi, kelajakda o'z yo'lini osonroq topishi mumkin. Jamiyat ham imkoniyati cheklangan shaxslarga begonadek ajablanib qaramaydi. Faqat yuqoridagi qarorlar to'liq amalga oshirilishi, qog'ozlarda qolib ketmasligi kerak va Xalq ta'limi vazirligi ixtisoslashgan maktab o'qituvchilarining xavotirlariga e'tibor berib ularni eshitishi, jamoatchilikning fikrlarini ham o'rganib borishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'zini boshqalardan kam bilmasligini o'rganishda oila ishtiroki juda muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'laki bo'lish

huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratilganiga 2020-yil oktabr oyida qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori yaqqol misol bo'la oladi. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishga har tomonlama sharoit yaratilmoqda. Inklyuziv ta'limni butun mamlakat bo'ylab rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bunga amaliy misol bo'ladi deb o'ylayman. Zero, bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim –tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
2. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya",2018
3. P.M.Po'latova, L.SH.Nurmuxamedova,D.B. Yakubjanova... Maxsus pedagogika (Darslik)- T.: "Fan va texnologiya"2014.



INGLIZ TILIDA GAPNING KOMMUNIKATIV MARKAZI - REMANI IFODALASHDA KLEFT QURILMALARNING ISHLATILISHI

Po‘latova O‘g‘ilxon Abduxaliqovna

Izboskan tuman 1-son KHM ingliz tili o‘qituvchisi, Andijon

E-mail: ziynat81@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilida gapning kommunikativ markazi - remani ifodalashda kleft qurilmalarning ishlatilishi xususida so‘z yuritiladi. Masala ustida izlanish olib borgan tadqiqotchilarning qarashlari, ingliz tilida gap bo‘laklarining aktuallashuvida kleft qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlari, so‘zlovchi kommunikativ intensiyasini to‘g‘ri yetkazishda kleft qurilmalarning ishlatilishi tegishli misollar orqali tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: kleft qurilmalar, sof kleft gaplar, psevdo-kleft gaplar.

THE USE OF CLEFT SENTENCES TO EXPRESS THE COMMUNICATIVE CENTER OF THE SENTENCE - RHEME IN ENGLISH

Ugilhon Pulatova

Teacher of English at Izboskan District Professional School №1, Andijan

Abstract: The article deals with the use of cleft sentences to express the communicative center of the sentence - rheme in English. The views of the researchers who studied the issue, the specific features of cleft sentences in the actualization of parts of sentence in English, the use of cleft sentences in conveying the communicative intention correctly are analyzed through relevant examples.

Keywords: cleft sentences, pure cleft sentences, pseudo-clefts.

Kleft gaplar tuzilishiga ko‘ra murakkab hisoblansa-da, semantik jihatdan sodda gaplarning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, ma‘lum kommunikativ vaziyatni emfatik-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor qilib ifodalash usulidir. [1,83]. Kommunikativ jihatdan esa kesimdan boshqa bo‘laklarni aktuallashtirish uchun qo‘llaniladi:

... *It's you they're after, Harry, and we'll just put everyone in even more danger by going back.* (ya'ni, ular aynan sening izingga tushgan (boshqa birovning emas, aynan sening), **Garri, ortga qaytib boshqalarni yana ham havf ostiga qo‘ygan bo‘lamiz**). (Rowling J. K. H. P. and the Cham. Secr., 121)

Yuqoridagi misoldan anglashilmoqdaki, kleft qurilma tegishli bo‘lak (bu vaziyatda o‘rin holi) ni emfatik tarzda aktuallashtirmoqda.

«Kleft gaplar» terminini ilk bor tilshunoslikka kiritgan O.Espersen Sandfeldning mazkur turdagi gaplarga «sodda gaplar transpozitsiyasi» deya yondashuviga qo‘shilmasligini ta’kidlaydi. O.Espersenning fikricha, kleft gaplar transpozitsiya emas, balki ekstrapozitsiya yo‘li bilan hosil qilinadi [2,241]. Ya.G.Testelets kleft gaplarga «...bosh gap qismi butunligicha rema, tobe qism esa tema hisoblangan murakkab qo‘shma gaplarning (ergashgan qo‘shma gaplarning) o‘ziga xos ko‘rinishidir. Mazkur vaziyatda tobe bo‘lak gap so‘ngida, yoki, aksincha, boshida joylashishi mumkin bo‘lib, bu holat terminologik jihatdan ayrim cheklovlarni vujudga keltiradi, shuning uchun bosh gap propozitsiyasi – kleft gaplar, postpozitsiyasi esa psevdokleft gaplarni vujudga keltiradi», – deya ta’rif beradi [3,446].

Kleft: *He remembered that it was Ratchett who had the next compartment.* (Christie A. Murd. on the O. E., 23)

It was at that season of the year that when the fullness of spring had not yet worn quite away. (Dreiser Th. Sister Carrie, 56)

Keltirilgan misollardan ma‘lum bo‘ladiki, kleft gapning aktuallashtirilgan bo‘lagini gap boshiga joylashtirish intensiv ravishda ajratib ko‘rsatish imkoni hamda zidlov munosabatni ifodalash usuli hamdir [4,73]. U.Cheyf ham, o‘z navbatida, kleft gaplarni zidlovni ifodalashning intonatsiyaga qo‘shimcha usuli deya hisoblaydi

[5,122]. Yana bir misol: *It was **only in the theatre** that I lived, ya'ni «Yotib-turishim faqat teatrd (boshqa joyda emas, aynan teatrd) edi».* (Wilde O., 15)

Demak, sof kleft gaplarning struktural ko'rinishi quyidagichadir:

*It is **Tommy** that we are looking for.*

*It was **Helen** who spoke first.*

(It + «to be» yordamchife'li + (not) + emfaza olgan bo'lak + bog'lovchi + (ega) + kesim)

Sof kleftlar gapning ma'lum bo'laklarini ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Quyida olingan neytral gap misolida qiyoslaymiz:

Smith saw Lauren at the concert last Friday.

Ega	<i>It was Smith who saw Lauren at the concert last Friday.</i>
To'ldiruvchi	<i>It was Lauren whom Smith saw at the concert last Friday.</i>
O'rin holi	<i>It was at the concert where Smith saw Lauren last Friday.</i>
Payt holi	<i>It was last Friday when Smith saw Lauren at the concert.</i>

Shuningdek, maqsad, sabab hollari ham shunday usulda rema guruhini tashkil qilib kelishi mumkin:

*I bought the necklace to show Helen how much I care for her – It was to show **Helen** how much I care for her that I bought the necklace.*

Psevdo-kleft gaplarda esa, aksincha, aktual bo'lak tema guruhidan so'ng joy oladi. Tuzilishiga ko'ra quyidagi uch xil ko'rinishda uchraydi [6,149]:

a) What + ega + kesim + to be yordamchi fe'li + o'tli / sifatli birikma:

*What the wizard guessed was **always difficult to tell**.* (Tolkien J.R.R., 276)

b) What + ega + kesim + to be yordamchi fe'li + (that va / yoki wh- bog'lovchi) + ega + kesim:

*No, what I am saying is that **I think we can accept Hardman's own account of himself**; But what I want to know is, **who shifted the carpet, and why?***

d) What + ega + kesim + to be yordamchi fe'li + belgili («to») infinitiv:

*What he did was **to furnish the Enterprise with the biggest beat of the war**. (Henry O., 455)*

Biroq, psevdokleflarning sof kleft gaplardan bir ustun tomoni bor - garchi rema mazkur qurilmalarda gap postpozitsiyasida bo'lsa-da, **Wh**-qismga ma'lum darajada fokus tushadi [7,421], ya'ni informativ jihatdan bunday gaplar kuchliroq yuklangan deyishimiz mumkin. Buning yorqin dalili sifatida psevdokleflar teskari tartibda kela olish orqali kommunikativ markazni o'zgartira olish xususiyatini keltirish mumkin (ega ergash gaplar tushunilmoqda): *What I want is **a glass of cold water** – A glass of cold water is **what I want***. Mazkur ko'rinishdagi gaplar tahlilidan tema guruhidagi kesim ham ma'lum darajada emfaza olayotganini inkor etib bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki, psevdokleft qurilmalar asosan gapda anglashilgan ish-harakatni va holatni ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Gapning boshqa bo'laklarini shu yo'sinda ajratib ko'rsatish gapda ma'lum grammatik o'zgarishlarni talab etadi, xususan, wh- bog'lovchiga taalluqli bo'lgan ot so'z turkumiga oid so'z tanlanishi kerak. Xususan:

«All» olmoshi «bor-yo'g'i» yoki «shuki» ma'nolarida qo'llanilishi mumkin:

*All she did observe was that **Hurstwood was somewhat different** (Dreiser Th. Sister Carrie, 281);*

«The person, the man, the woman «va h.k. so'zlari shaxsga urg'u beradi:

*The person who wore it **must be something** (Dreiser Th. Sister Carrie, 282);*

«The place» makon ko'rsatkichi uchun: *The place that had been so comfortable, where he had spent so many days of warmth, **was now a memory** (Dreiser Th. Sister Carrie, 112);*

«The reason» sabab emfazasi uchun: *The reason why the Reformers were discontented and wanted some changes made, seemed quite clear* (Twain M. Fol.the Eq.,21) *The reason why all this was to be done by him alone, was such as I have given above.* (Austen J. Pride and prejudice, 44)

Kleft qurilmalar gapping kommunikativ aspekti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aktuallashuv dinamikasida juda sarmahsul vositalardan biridir. Gap tarkibidagi eng faol bo‘lak prepozitsiya usuli orqali so‘zlovchi yoki muallifning kommunikativ maqsadlari uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Куралева Т.В. Средства экспрессивного синтаксиса в современном английском диалоге. – Источник Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 5. – Тамбов: Грамота, 2013. www.gramota.net/editions/2.html
2. Jespersen O. Analytic Syntax. – The University of Chicago Press, 1984.
3. Тестелец Я.Г. Введение в общий синтаксис. – Российский государственный университет, 2001.
4. Jespersen O. Analytic Syntax. – Chicago: University of Chicago Press, 1984.
5. Чейф У.А. Значение и структура языка. – М, Прогресс, 1975.
6. Akmajian A. On deriving cleft sentences from pseudo-cleft sentences. Linguistic inquiry №1, 1970.
7. Biber D, Conrad S, Leech G. Student grammar of spoken and written English. –L.: Longman, 2003.

“САРОБ” РОМАНИ УСТИДАГИ ИЛК БАҲСЛАР ХУСУСИДА

Худойқулова Марҳабо Аҳадовна,

филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),

Бухоро давтал университети

XX асрнинг 20-йиллари охиридан бошланган адабиётга синфийлик нуқтаи назаридан баҳо бериш тамойили кейинги даврларда ҳам давом этди. Бадий асарга санъат нуқтаи назаридан эмас, балки синфий нуқтаи назардан баҳо бериш адабий танқидчиликнинг, шу билан бирга тақриз, мақола, баҳснинг бош вазифасига айлана борди. Бундай ҳолатни ўтган асрнинг 30-йиллар танқидчилигида ҳам кузатиш мумкин. Ю. Султонов ва Ҳ. Мусаевларнинг “Сароб” романига бағишланган мақолаларида бу хусусият яққол сезилади.

Баҳснинг ўзига хос хусусиятларидан бири шуки, унда кўтарилган муаммога бирдан ортиқ ёки бир неча ўнлаб адабиётшунос, олимлар фикр билдириши мумкин. Уларнинг баъзи бирлари, табиийки, бир позицияда туриб, бир фикрни, бошқалари ундан фарқли фикрни ҳимоя қилиши мумкин. Шу жиҳатдан ўзбек адабиётшунослигида А. Қахҳорнинг “Сароб” романи устида бўлиб ўтган баҳс, мунозаралар эътиборни тортади. Турлича қараш, нуқтаи назарларга бой бу баҳс бир қанча вақт давом этган. Китобхонда қандайдир даражада мулоҳаза уйғотишининг ўзи баҳс характеридаги мақоланинг маълум аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Баҳсда адабиётшунос Ю.Султонов маъруза қилди. Шуниси эътиборлики, ижобий қаҳрамонлар фаолияти асарда янада чуқурроқ тасвирланиши лозим эди, - деган бу фикр мунозарада сўзга чиққан деярли барча баҳс иштирокчилари томонидан қўллаб-қувватланди. Лекин бу фикрни талқин этиш масаласида ёзувчига талаблар қўйилиши нуқтаи назаридан тўғри фикрлар билан бир қаторда янглиш қарашлар ҳам илгари

сурилди. Масалан, Ҳ.Мусаев ёзувчидан “мамлакатимизнинг иқтисодий ва сиёсий тараққиётини кўрсатиш”ни талаб қилади. Унинг шу каби бир қанча хато фикрлари аслида романга бағишланган тақризида айтилган қарашларнинг давоми эди.

А. Қаҳҳор ўз қарашларини Саидий тилидан айттиради, яъни Саидийнинг фикрлари бу, аслида, ёзувчининг фикрларидир, - деган эди у мақоласида. У адибни ижобий қаҳрамонлар тасвирига кам эътибор берганликда айблайди.

Бироқ, шуниси эътиборлики, бу хато фикрлар баҳс қатнашчилари томонидан кескин қаршиликка учради. Масалан, А.Қаҳҳор Саидийга ачинади деган қарашларни ҳам, ёзувчи билан қаҳрамон ўртасига тенглик аломати қўйилувчи фикрларни ҳам Ҳ.Ёқубов кескин қоралади. Саидий образини тўғри англаш учун,- дейди Ҳ.Ёқубов, асарнинг бош ғоясини аниқ белгилаб олиш ва бош қаҳрамон билан бу ғоянинг алоқадорлиги масаласини тўғри белгилаш лозим. Олимнинг фикрлари баҳс қатнашчиларига тўғри йўналиш беришда муҳим аҳамиятга эга бўлди, шу билан бирга бугунги кун нуқтаи назаридан қаралса, Ҳ.Ёқубов қарашларида ҳам ўша замон мафкурасининг таъсири сезилиб туради. Баҳсда сўзга чиққан Н.Охундий ҳам роман моҳиятини баҳолашда тўғри позицияда бўлади, уни Р.Мажидий, Уйғун кабилар қўллаб-қувватлайди. Бироқ унинг мулоҳазаларида ҳам шўро сиёсатининг таъсири яққол кўриниб туради.

Баҳсда иштирок этган бошқа нотиклар романнинг асосий ғояси билан бу ғояни ифодаловчи бош қаҳрамонлар ўртасидаги ҳеч қандай номувофиклик йўқ, бунинг устига асарда ижобий образлар ҳам мавжуд, аммо улар салбий образларга нисбатан бирмунча бўш чиққан, деган фикрларни илгари сурадилар. Масалан, Р.Мажидий бунинг баъзи бир сабабларини изоҳлаб беришга ҳаракат қилиб, асарга синфийлик нуқтаи назаридан баҳо беришга ҳаракат қилган. У роман жанри талабларини ҳисобга олмаслик натижасида хато фикрларга йўл қўяди [1,181]. Баҳсга муносабат билдирган шоир Уйғун ҳам замонасозликка йўл қўйиб, романга хато баҳо берган.

Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, мураккаб баҳсни тартибли олиб бориш қийин ва унинг иштирокчилари қанча кўп бўлса, шунчалик жараён қийинлашади. Кўп иштирокчилар билан тортишув ўз-ўзидан “ҳал қилиниши” мумкин, айниқса, оғзаки мунозараси - фақат агар барча иштирокчилар яхши рухий интизомга эга бўлса, айтилганларнинг моҳиятини тушуниш қобилияти ва моҳиятини тушунса, баҳснинг вазифаси енгиллашади. Аммо кўпинча мураккаб баҳс шунчалик кўр-кўрона ёки саводсиз тарзда ўтказиладики, у масалаларни "биргаликда муҳокама қилиш" учун мураккабликларни келтириб чиқаради. Афсуски, бу илмий жамиятлардаги илмий баҳслар пайтида ҳам содир бўлади. “Сароб” ҳақидаги баҳс бунинг исботи.

Уч кун давом этган мунозаранинг учинчи куни “Сароб”нинг ўзига хослиги тан олиниб, одатдаги романлардан эмаслигига тўла ишонч ҳосил қилинади. Унга одатдаги романлар андозаси билан ёндашиш нотўғри йўл деб топилади. Баҳсга яқун ясаган С. Азимов фикрлари ҳам адабиётшунослигимиз учун катта аҳамиятга эга бўлди. У ўз нутқини “Сароб” ҳеч қандай зарарли эмас, деган жуда тўғри хулоса билан яқунлайди.

Кўринадики, баҳсларда иштирок этганларнинг кўпчилиги асарни, унинг муаллифини қанчалик айблашмасин, мунозара яқунида асарга тўғри баҳо берилади. Бу эса ўзбек адабий танқидчилиги XX асрнинг ўттизинчи йиллари охирларида савия жиҳатидан яна бир поғонага кўтарила олганини кўрсатади. Бунда “Сароб” романи ўзига хос муҳим бир туртки вазифасини ўтайди. Кейинги йилларда ҳам бу роман ҳақидаги мунозаралар давом этдики [2,3], бу кўрсаткич ҳам баҳснинг адабий жараёнда муҳим ўрин тутганлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Кўшжонов. “Сароб” ўтмиши ва бугуни// ЎзАС. 1989 йил. № 42.
2. Раҳмон Қўчқор. Мен билан мунозара қилсангиз. Тошкент. Маънавият. 1998. –Б. 124.
3. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. Тошкент. 1-том. Тошкент. “Фан”.1987. – Б. 181.

ASSESSMENT OF FINANCIAL STABILITY OF INSURANCE COMPANIES

Abdurazzokov Shokhzod Otabekovich

The graduate student of Tashkent Finance Institute

Jabborov Olchinbek Nuriddinovich

The graduate student of Tashkent Economics University

Email: shahzodbekofficial99@gmail.com

Abstract: By the nature of their business, insurance companies are exposed to risks. An insurance company's distress or failure can arise through inadequate provisions for claims or insufficient capital to withstand unexpected losses either from insured events or volatility in the assets they hold. The likelihood of distress or failure may be heightened through certain activities insurance companies can engage in. This article sets out two main ways in which insurance companies could have adverse effects on financial stability and focuses on the key channels for transmission of risks to financial stability rather than conjunctural risk assessment. The first transmission channel relates to the risk that private and commercial policyholders face disruption in the critical financial services provided by insurance companies if one or several insurers fail. This might occur if resolution arrangements and guarantee protection schemes did not provide sufficient protection for policyholders against interruption to critical financial services, or if in the absence of alternative providers, the failure of an insurance company disrupted the provision of critical services to prospective policyholders. This risk is more likely to arise when a small number of insurance companies dominate supply in a sector. The second source of systemic risk stemming from the insurance sector involves activities that propagate or amplify shocks to financial counterparties or markets. There are several channels through which this could occur. Insurance companies could affect the resilience of their financial counterparties if, on a significant scale, they stopped funding them,

stopped lending them securities, or were unable to meet claims following the occurrence of insured events.

Evidence suggests that insurers can also behave in a procyclical way, exacerbating the credit cycle (for instance by extending guarantees) or the volatility of financial markets. In practice, it is the second source of systemic risk that is considered more important for the insurance sector.

Key words: insurance companies, financial markets, protection schemes, critical financial services, insufficient capital, supporting economic activity, real economy.

I. Introduction

In Uzbekistan, insurance companies are regulated by the Insurance Market Development Agency of Uzbekistan (IMDA). The IMDA's objectives include promoting the safety and soundness of insurance companies and securing an appropriate degree of protection for those who are, or may become, insurance policyholders. The insurance sector is also an important consideration for the IMDA, whose objectives include protecting and enhancing the resilience of the Uzbekistan financial system. There are a number of regulatory measures in place to mitigate the risks discussed in this article and the Bank will continue to monitor systemic risks emanating from the insurance sector. The Bank also supports international efforts to strengthen the resilience of insurance companies operating cross-border. This includes ongoing work towards the development of a global Insurance Capital Standard and work to identify and address the potential risks posed by global systemically important insurers. The insurance sector plays an important role in the provision of critical financial services. Firstly, insurance cover allows households, corporations and public sector entities to transfer risks. For example, general insurance companies help firms and households limit the financial costs associated with the occurrence of various risks to their physical property, legal liability and miscellaneous financial loss. Second, insurance companies channel savings into

investment. Life insurance companies, for example, help individuals to cover risks arising from uncertainty about their health and lifespan, and one way that they do this is by gathering funds from policyholders and investing these in debt, equity and other assets. To perform these services, insurance companies operate business models that differ from other financial institutions, including banks. For instance, insurers collect premiums upfront from policyholders for services which might only be delivered several years later — the so-called ‘inverted production cycle’. Insurance companies’ business models are exposed to a variety of risks on both sides of the balance sheet. The value of the assets of an insurance company could decrease following a deterioration in financial market conditions. Meanwhile, the value of the liabilities of an insurance company could increase sharply if it had underestimated the losses that might arise from the occurrence of an insured event such as a natural disaster. The failure of an insurer can occur when the incidence of risks reduces its financial resources below a viable level and it is subsequently unable to recover its position. In Uzbekistan, the Insurance Market Development Agency of Uzbekistan (IMDA’s) objectives include promoting the safety and soundness of insurance companies and contributing to the securing of an appropriate degree of protection for those who are, or may become, insurance policyholders.

The IMDA primary objectives are to identify, monitor and take action to remove or reduce systemic risks with a view to protecting and enhancing the resilience of the Uzbekistan financial system. The aim is to explain the key channels, rather than to provide a conjunctural assessment of systemic risks posed by Uzbekistan insurance sector today. The article draws on various sources of data to consider trends in insurance markets and the size of certain exposures and interconnections. It also uses historical examples to illustrate how some of these channels have operated in the past. The framework guiding the analysis of financial stability - based on sources of fragilities and channels of transmission of shocks - is consistent with the analytical framework previously developed by the IMDA.




Figure1. Potential transmission channels of risks from insurers to the real economy and financial stability

Insurers could also contribute to systemic risks if they behaved in ways which propagated shocks to the financial system. This could occur if their actions threatened the resilience of a sufficient number of, or systemically important, financial counterparties or if their actions contributed to the disruption of the functioning of systemically important financial markets. The final section of the article provides an overview of current efforts by authorities to mitigate these risks.

II. Conclusion and Recommendations

Insurance companies are important providers of critical services to the real economy. They support output growth by helping businesses and households to manage their risks, and in the process channel savings into investments. But as this

article has shown, the insurance sector can adversely affect financial stability. The activities insurance companies engage in could contribute to the formation of fragilities, and if one or several firms failed or were in distress, this could lead to disruptions to critical services to the real economy. Furthermore, insurers' activities and behaviour could amplify shocks to the financial system, either via financial markets or directly through financial counterparties. Given that concentration of insurance services is not particularly high in the United Kingdom, it is this second source of systemic risk that it is more important to monitor in practice.

As part of its remit to identify, monitor and take action to reduce systemic risks and enhance the resilience of the Uzbekistan financial system, the IMDA will review some of the risks discussed in this article, including those arising from activities such as providing financial guarantees. The IMDA also asked staff to further assess the risks from activities such as cash collateral reinvestment programmes associated with securities lending, or writing credit default swaps, as these activities can increase fragilities through leverage or maturity transformation, and contribute to the propagation of shocks through interconnectedness.

III. REFERENCES

1. Berger (A.), Davis (S.) and Flannery (M.) (2000) "Comparing market and supervisory assessments of bank performance: who knows what and when?" *Journal of Money, Credit and Banking*, 32
2. Boot (AWA) (2003) "Banking Consolidation and Strategic Positioning with European Implications", *Brookings-Wharton Papers on Financial Services*
3. Moody's Investors Service, Special Commentary (2003) "Rising Reinsurance Risk Affects P&C Insurance Reimbursement", August.
4. Winton (A.) (2017) "Don't put all your eggs in one basket? Diversification and Specialization in Lending" *University of Minnesota, Faculty of Finance*
5. Fitch Ratings (2013) *Global Credit Derivatives: A Qualified Success*, Fitch Ratings Special Report, September
6. Internet information :<https://scholar.google.ru/schhp?hl=ru>

**IKKINCHI YO‘LLAR VA MURAKKAB TABIIY SHAROITLARDA:
KO‘CHMA QUM TARQALGAN HUDUDLARDA, TOG‘LI SHAROITDA VA
O‘ZLASHTIRILGAN YERLARDA YER POLOTNOSI QURILISHINI
TASHKILLASHTIRISH**

Islomov Akbar Sadulloyevich,

Toshkent davlat transport universiteti, Qurilish muhandisligi fakulteti tyutori,

islomovakbar9184@gmail.com

Rozikov Daler Doniyor o‘g‘li,

Toshkent davlat transport universiteti, Qurilish muhandisligi fakulteti

YMTY-5 guruh talabasi

Annotation: This article examines the principles of construction and storage of the Earth’s chamber in the complex conditions of railway construction.

Keywords: Earth polotnos, railway, otkos, deformation, load, bottom device, elevators.

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir yo‘l qurilishining murakkab sharoitlarida yer polotnosi qurilishi va saqlash tamoyillari ko‘rib chiqilgan.

Калит сўзлар: ер полотноси, темир йўл, откослар, деформация, юк, остки қурилма, кўтармалар.

Kirish qismi: Ushbu maqolada ikkinchi yo‘llar va murakkab tabiiy sharoitlarda: ko‘chma qum tarqalgan hududlarda, tog‘li sharoitda yer polotnosi qurilishini tashkillashtirish ko‘rib chiqilgan.

Metodlar bo‘limi: Shamoldan yengil nurovchi qoya, shuningdek yirik siniqli gruntlardan ko‘tarmalar tiklashda zichlikning talab etilgan darajasi belgilangan to‘kish va zichlash maromiga rioya qilish: to‘kiladigan qatlamlar qalinligi va alohida

toshlarning o'lchamlariga cheklashlar quyida keltiriladigan band talablariga mos ravishda, zichlagich mashinalarning o'tishlar sonini aniqlash dastlabki sinalma zichlash va cho'kishga loyiha ko'rsatmalari bilan mos zahira vujudga keltirish asosida erishiladi.

Yiriq siniqli gruntlardan va shamolda yengil nurovchi yumshaydigan qoyalardan quriladigan tepaliklar qalinligi 0.4 m dan ortiq bo'lmagan, shamolda yengil nurovchi qoyalardan esa – 1m dan ortiq bo'lmagan va kuchsiz nurovchi qoyalardan – 1m dan ortiq bo'lmagan qatlamlar bilan tiklanishi kerak; bu holda grunt zichlanayotgan qatlamning 1/3 qalinligiga lekin 0.7m dan katta bo'lmagan o'lchamli tarkibiy qismlarga ega bo'lishi kerak [1].

Munozara bo'limi: Qoyali ko'tarmalarni kamida 0.5m qatlamli yuqori qismi shag'alli grunt bilan tiklanishi kerak; bu holda eng yirik tarkibiy qismlarning o'lchamlari 0.1m dan katta bo'lmashligi kerak.

Botqoqlarda, ayniqsa suvli joylarda tepaliklarni ko'tarish ko'proq qish davrida bajarilishi kerak. Tepalikni botqoqlik sathidan pastdagi qismini "boshidan boshlab" usuli bilan, qolgan qismini esa qatlamma-qatlam to'kish kerak.

Ko'tarmalarni (asosning mustahkamligiga va botqoqning suv bosganligiga qarab) bir yo'la butun balandligigacha yoki ikki bosqichda yasash lozim: dastavval oraliq karerdan avtosamosvallarda keltirilgan tuproq vositasida past shaklda "yo'l" tayyorlanadi, so'ngra poyezdda tashib, loyiha profilgacha uyuladi.

Ko'chma qumlar sohasida yer polotnosini qurishda yer ishlari qum holatining tabiiy holatini minimal buzish bilan olib borilishi lozim.

Polotno va unga qo'shni polosalarni mahkamlash va himoyalash ishlari polotnoning uncha uzun bo'lmagan qismlarida tuproq to'kilishi bilanoq bajarilishi lozim. Yo'lni yotqizishni va tekislash ishlarini yer polotnosini ko'tarish bilanoq bajarish lozim.

Ko'chma qumlar sohasidagi to'kmalarni tiklashni foydalanilayotgan tuproqning tabiiy namliginigi pasayishiga yo'l qo'ymasdan zaxiralardan foydalanib bajarish lozim. yer usti o'simliklar bilan qoplangan yoki yarim qoplangan joylarda

to'kmani tiklash uchun tik nishobli tor, lekin chuqur zaxiralar lozim, bunda bermaning kengligi zahira chuqurligining 1.5 cha oshiriladi.

Ko'chma qumlarda chuqurlarni sig'imi 0.8 va 1.1m³ bo'lgan cho'michli draglaynlar bilan o'yib, aksariyat tuproqni ko'chirish uzoqligi 150 m gacha bo'lgan cho'mich turdagi buldozerlar bilan bajariladi. Tuproq nam, qisman muzlagan holda bo'ladigan kuz-qish va erta bahor davrlarda o'yishni skreperlar vositasida bajarish lozim [2].

Natijalar bo'limi: Qish vaqtida tuproq ishlarini bajarishda quyidagilar zarur:

- ko'tarma ostidagi asoslarni qor va muzdan tozalash;
- ko'tarmaga qor va muzning qo'shilishini oldini olish;
- ko'tarmaning balandligi va to'kish usuliga bog'liq bo'lmagan holda ko'tarmani og'ir zichlovchi mashinalar va panjarali g'altak mashinalar bilan zichlashni bajarish, ko'tarma joylanadigan muzlagan gruntlarni gruntning umumiy hajmidan 30% dan ortiq bo'lishiga, ko'tarmada uyachalar ko'rinishida notekis joylashishiga, shuningdek ko'tarmaning qiya qismida muzlagan kesaklar yig'ilishiga va ularni qiyaliklar sirtidan 1 m dan yaqinda joylashishiga; muzlagan grunt kesaklarining undan ikki qismidan ko'p bo'lmasligiga va 0.1m dan katta bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- ko'tarmalarning yuqori qismi, shuningdek suvo'tkazgich quvurlarning yuqorisidagi qatlam va ikkala tomondagi grunt qatlamini kamida 1m qismini erigan loyli yoki drenajlovchi grunt bilan ko'mish;
- ko'priklar oldidagi tayanchlarning orqa qirralari orqasidagi ko'tarmalar uchun faqat erigan drenajlovchi grunt qo'llash.

Qoyali ko'tarmalar va yarim ko'tarmalar tashkil etishda tekis va kam buzilgan qiyaliklarni hosil qilish uchun, bitkazish ishlari hajmini kamaytirish uchun qiya quduqlarni og'ma to'ldirish, oxirgilar diametrini 65-110mm gacha kamaytirish, dastlabki tirqish hosil qilish bilan konturli portlatishni qo'llash kerak [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurilish ishlab chiqarishni tashkil qilish. E.M. Mahamataliev ToshTYMI 1009 yil.
2. Основы устройства и расчетов железнодорожный пути. Под ред. С.В. Амелина, Т.Г. Яковлевой. М.: Транспорт, 1990. – 367 с.
3. Правила технической эксплуатации железной дороги РУз. Утв. Узгосжелдорнадзором от 13.08.01г. Т.: ОАО «Темирйулчи», 2001. – 159 с.



YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI

Hakimova Yoqutxon To‘laganovna,

Toshkent davlat transport universiteti,
Ko‘priklar va tonnellar kafedrası o‘qituvchisi.

Rozikov Daler Doniyor o‘g‘li,

Toshkent davlat transport universiteti,
Qurilish muhandisligi fakulteti YMTY-5 guruh talabasi

Annotation: This article examines the future work of the youth of New Uzbekistan, the conditions created for them, and the requirements for them.

Keywords: Uzbekistan, future generation, youth, in our country, Tashkent, IELTS, education, spirituality and enlightenment personality., effective, parlament.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarining kelajak ishlari va ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda ularga qo‘yiladigan talablar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, kelajak avlod, yoshlar, yurtimizda, Toshkent, IELTS, ta‘lim, ma‘naviyat va ma‘rifat, samarali, shaxs, parlament.

Yoshlar — har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma‘noda, O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinası hisoblanadi. Zero, yangi O‘zbekiston yoshlari — kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir.

Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarnı mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezident va ijod maktablari tashkil etilayotgani zamirida katta ma‘no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o‘quv

binolarida ta'lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.

Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oyani ilgari surgani bejiz emas. Zotan, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz”.

Shu nuqtayi nazardan bugun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Murojaatnomada bayon etilgan ustuvor vazifalarning ijrosini ta’minlash uchun faol ish olib bormoqda. Xususan, ushbu tarixiy nutqdan so‘ng, parlament quyi palatasida Murojaatnoma mazmun-mohiyatiga va ahamiyatiga bag‘ishlangan bir qator tadbirlar o‘tkazildi.

Kuni kecha “Ta’lim va tarbiya – yosh avlod kamolotining poydevori va davlatimiz taraqqiyotining kafolati” mavzusida fraksiyalararo bo‘lib o‘tgan amaliy muloqotda ham Murojaatnomada belgilab berilgan vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Samimiy va ko‘tarinki ruhda o‘tgan muloqotda Murojaatnomadan o‘rin olgan vazifalar bilan birga, 2021-yilga mo‘ljallangan Davlat dasturi loyihasiga ta’lim tizimi taraqqiyotiga xizmat qiladigan bir qator takliflar bildirildi. Bu bejiz emas, albatta. Ayonki, Murojaatnomada belgilangan maqsadlarga so‘zsiz erishish barchamizdan yakdillik va faollik talab etadi.

Nega desangiz, joylarda aholi bilan uchrashuvlarimiz davomida aksariyat maktablarning binolari o‘tgan asrning o‘rtalarida qurilgani, o‘quv-partalari eski, sinfxonalar yetishmasligiga ko‘p bor guvoh bo‘lganmiz. Demak, mamlakatni qudratli qiladigan kuch ilm-fan, ta’lim va tarbiya ekan, bilim va ma’naviyat maskani bo‘lgan maktablar sharoitini yaxshilash kechiktirib bo‘lmas vazifa hisoblanadi.

Murojaatnomada maktab ta’limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettirilishi aytib o‘tildi. Tabiiyki, joriy yilning o‘zida 30 ta yangi maktab qurish, 320 ta maktabni ta’mirlesh va moddiy-texnik bazasini yaxshilash maqsadida byudjetdan 2 trillion

soʻmlik mablagʻ ajratilishi ming-minglab yoshlarning qalbini toʻlqinlangani aniq. Bu yoʻnalishda boshlagan ishlarni davom ettirish maqsadida 2021-yilni mamlakatimizda “Yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb eʼlon qilinishi yoshlarning salohiyatini namoyon etish borasidagi saʼy-harakatlariga yangicha kuch va ilhom bagʻishladi.

Yangi Oʻzbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan gʻoyaviy-maʼnaviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng koʻlamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir. Yosh avlodni uzoq vaqt samarali shaxs boʻlishida koʻplab belgilar bor, jumladan, har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, bugungi kunda farzandlarimiz taʼlim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli boʻlgan salbiy taʼsirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga koʻrsatishga qodir boʻlgan yosh avlodni tarbiyalashi ham qarz, ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq, taʼlim-tarbiya bilan bevosita bogʻliq. Yangi Oʻzbekiston yoshlari ayni vaqtda qanday boʻlmogʻi kerak? - Yangi Oʻzbekistonni yangi kelajak avlod bilan quramiz. Ayni vaqtda bu avlodlar ham ilman, ham maʼnan yetuk boʻlmogʻi lozim. Oʻz mustaqil fikriga ega, IT sohasida faoliyat olib bora oladigan, chet tillarini yaxshi saviyada biladigan har bir yosh bugungi kunda yangi Oʻzbekistonimizning asoslaridandir.

Unutmang, yangi Oʻzbekiston yoshlari - kelajagimiz va istiqbolimiz poydevori.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

xs.uz

<https://xs.uz>

uwed.uz

<https://uwed.uz>

yuz.uz

<https://yuz.uz>

Yangi Oʻzbekiston Strategiyasi – Sh.M.Mirziyoyev 09.09.2021yil

SANOAT KORXONALARIDA TASHQARIGAN UZATILAYOTGAN HAVO OQIMLARIDAN FOYDALI KOMPONENTLARNI OLIB QOLISH

Bektoshev Oybek Qosimjon o'g'li¹,

Bektosheva Shoxsanam Axrorjon qizi²,

oybekbektoshev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Sanoat korxonalarida tashqariga uzatiladigan havo oqimlarini tozalash va foydalilarini olib qolish bo'yicha tavsiyalar ko'rib chiqilgan. Havo va gaz-havo aralashmalarini texnologik va ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishda ish muhitiga kiradigan chang ifloslanishidan tozalash uchun mo'ljallangan qurilmalar taxlili amalga oshirilgan. Changni tozalash moslamalari turli joylarida, silliqlash va payvandlash joylarida, metallga ishlov berish va energetika sanoatida, qurilish materiallari ishlab chiqarishda, oziq - ovqat, farmatsevtika, yog'ochni qayta ishlash, quyish va kuyidish joylari sanoatida o'rta va mayda tarqalgan chang to'xtgichlar keng qo'llaniladi.

Tayanch tushunchalar: Havoni changdan tozalash, Konstruksiya xususiyatlari, HQJI sikloni, HQJI siklonining ishlash printsipi.

Sanoat ishlab chiqarish inson va jamiyat xayotida muhim o'rin tutadi, ularning turli ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Xozirgi avlod ko'z o'ngida sodir bo'layotgan global fojia sababi shundan iboratki, XX asr davomida, ayniqsa, so'nggi 40 yil ichida odamlarning iqtisodiy rivojlanish maqsadida energiyadan foydalanish miqdori ancha oshdi. Bu esa atrof-muhitga salbiy tasir ko'rsatmoqda. Chunki iqlimning dunyo miqyosida global isib ketishi yoqilg'ining organik turlaridan foydalanadigan issiqlik elektr stansiyalarining ishlashi natijasida yuzaga kelmoqda. Shuningdek, tobora ko'payib borayotgan sanoat ishlab chiqarish va ichki yonish dvigatellarining atmosferaga chiqarayotgan gazlar bilan bevosita bog'liq. Vaholanki,

ushbu yoqilg'ı resurslari ularga ishlov berish xamda foydalanilishi sababli tobora kamayib bormoqda. Bu o'z navbatida tejash va oqilona foydalanishni talab etadi. Ekologik toza energetika texnologiyalari esa xozircha ushbu muammoni xal qilishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata olmayapti. Shubxasiz, energiyani samarali ishlab chiqarish va undan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarimizni asrab-avaylash va atrof-muxitga chiqarilayotgan zararli gaz havo aralashmalarni kamaytirish, ularni tutib qolish hamda ulardan foydalilarini olib qolish e'tibor qaratish zarur bo'lgan masalalardan biri xisoblanadi. Hozirgi kunda sanoat korxonalarida foydalanilayotgan yuqori va o'rta bosimda ishlovchi siklon qurilmalari sanoat chiqindilarini ma'lum bir miqdorda tutib qolish imkonini beradi. Sanoat korxonalaridan tashqariga tashlanayotgan changlar turli shakl va o'lchamga, zichlikka ega ekanligi uchun turli usullar yordamida tozalab olinadi.

Havoni changdan tozalashning turli usullari mavjud:

1. Gravitatsion usul.
2. Quruq inersion va markazdan qochma kuch asosida tozalash usuli.
3. Ho'llash usuli.
4. Filtrlash usuli.
5. Elektrostatik usul.
6. Tovush va ultra tovush yordamida koagullash usuli.

Ular qo'llanilishi bo'yicha turli sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida konstruktiv tuzilishi va ishlash prinnsipi bilan bir-biridan farqlanadi. Biz tavsiya qilayotgan usulda IJOI sikloni-bu aspiratsiya tizimlari va pnevmatik tarmoqlarning bir qismi sifatida havoni katta chang zarralaridan quruq tozalash uchun mo'ljallangan samarali filtrlash moslamasi IJOI siklonlari un, yog'ochni qayta ishlash, donni qayta ishlash sanoatida, tegirmonlarda ishlatilganda yaxshi ko'rsatkichlaega ega. IJOI siklonlarining texnik xususiyatlari zarracha kattaligi 125 mikrondan katta bo'lgan qo'pol changni ushlab turishga va ularni turli xil mahsulotlarni saralash va ishlab

chiqarishda tozalashning birinchi bosqichi sifatida qo‘llashga imkon beradi. Tozalash darajasiga ko‘ra, GOST 12.2.043-80 ga muvofiq, IJOI chang yig‘ish moslamalari filtr elementlarining 4-sinfiga kiradi. Olingan chang zarralarining xususiyatlari va hajmiga qarab, IJOI seriyali qurilmalarni tozalash darajasi 70-98% oralig‘ida IJOI siklonining ishlash printsipi havo oqimiga aylanish va markazdan qochiruvchi kuchning paydo bo‘lishiga asoslanadi. Ifloslangan havo u siklon korpusiga gorizontal tekislikka keskin burchak ostida joylashgan kirish trubkasi orqali kiradi va spiral bo‘ylab pastga qarab harakatlanadi. Markazdan qochiruvchi kuch chang zarralarini devorlarga tashlaydi va inertsia kuchi ularga oldinga harakatini beradi.

Ventilyator tomonidan ishlab chiqarilgan bosim yoki tushirish havoni vertikal trubaga 180° burchak ostida yo‘naltiradi, chang zarralari korpusning pastki qismiga joylashadi va qabul qiluvchi bunkerga quyiladi. Teskari konusning ajratuvchisi chang zarralarining chiqadigan toza oqimga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qiladi. Maksimal filtrlash darajasini saqlab qolish uchun kiruvchi havo oqimining tezligi 15 dan 18 m/s gacha bo‘lishi kerak. Bu holatda ham tozalangan havo tashqi muhit yani atmosferaga chiqarib yuboriladi.

Biz taklif etayotgan tavsiya sanoat korxonalarida tashqariga tashlanayotgan gaz va chang aralashmalarni tutib qolish tizimlarida tashqi muhitga foydasiz uzatib yuborilayotgan havo oqimi harakat tezligi energiyasidan foydalanish va elektr energiya ishlab chiqarishdir. Buning uchun tozalangan havo oqimi chiqib ketivchi qisimga shamol agregatini o‘rnatish va uni sanoat korxonasini kichik quvvatli istemolchilari uchun ya’ni xususiy extiyojga qo‘llash taklif etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2021 yil 12 aprel kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori.
2. Sanoat ekologiyasi Oliy o‘quv muassasalari uchun darslik. SH.A.Mamatqolov, T.T.Tursunov Toshkent 2020 yil.

3. Sanoat chiqindilarini rekuperatsiya qilish texnologiyasi . S.M.Turobjonov, M.M.Niyazova Toshkent, 2011 yil.

4.<https://sibelkon.ru/produkcziya/pyileulavlivayushhee-oborudovanje/ciklonnye-filtry/ciklon-col/>

5. Wind Power [Электронный ресурс]. – 2016. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Wind_Power.

России, 2002. – 8 с. – (Государственный стандарт Российской Федерации).



O'SMIRLAR KIYIMLARI ASSORTIMENTINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR

Abulova Parvina Ulug'bekovna

“MUNIS DJINS TEKSTIL” mas’uliyati cheklangan jamiyati

tikuvchi-mutaxassisi

E-mail: zebo-7171@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada o’smirlar kiyimlari assortimentini shakllantiruvchi omillar, bolalar uchun tikuv buyumlari ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlari, xom ashyolari, o’smirlar kiyimlarining assortimenti va klassifikatsiyasi, o’smirlar kiyim-kechaklarining umumiy maqsadiga ko‘ra sinflanishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o’smirlar, kiyimlar, tikuv buyumlari, assortiment, gigiyenik, estetik, ekspluatatsion.

FACTORS FORMING THE ASSORTMENT OF TEENAGERS’ CLOTHING

Abulova Parvina Ulug'bekovna

"MUNIS JEANS TEXTILE" limited liability company

tailor-specialist

ABSTRACT. This article describes the factors that form the range of clothes for teenagers, the economic aspects of the production of sewing products for children, raw materials, the assortment and classification of clothes for teenagers, the classification of clothes for teenagers according to their general purpose.

Key words: teenagers, clothes, sewing products, assortment, hygienic, aesthetic, operational.

Kiyimning paydo bo'lishi tarixi asrlar qa'riga, insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Materialistik nuqtai nazar kiyimning kelib chiqishini iqlim sharoiti bilan, rivojlanishini esa ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish vositalarining tarkibi bilan bog'laydi.

Soha tarixiga nazar soladigan bo'lsak, dastlab inson tanasini noqulay iqlim sharoitlaridan, atmosfera ta'siridan himoya qilish uchun yaratilgan kiyim-kechak, turli tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, milliy xususiyatlar, jamiyat ta'sirida juda ko'p o'zgarishlarni boshdan kechirdi, turli xillari va shakllariga ega bo'ldi.

Ayniqsa, tikuv va trikotaj assortimentida kiyim-kechak eng katta ulushga ega. O'smirlar kiyimlarini ishlab chiqarishni tashkil etishga bir qator modellar va uslublarning takrorlanishi ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, matolardan oqilona, tejamkor foydalanish xarajatlarni kamaytirishga va zarur rentabellikka erishishga yordam beradi. Bolalar uchun tikuv buyumlari ishlab chiqarishda xom ashyo tannarxini pasaytirish, shu bilan birga mehnat unumdorligini oshirish shart-sharoitlari asosan ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, ichki zaxiralardan to'liq foydalanish hisobiga erishiladi.

O'smirlar kiyimlari xilma-xil bo'lib, ko'plab turdagi mahsulotlarni (ikki ming turdan ortiq) o'z ichiga oladi. Asosiy turlari - paltolar, kurtkalar, shimlar, yubkalar, kostyumlar, ko'ylaklar va boshqalar bo'lib, bizga turli maqsadlar uchun kiyim to'plamlarini yaratishga imkon beradi: ish, dam olish, uyda, sport uchun.

Ushbu to'plam (kolleksiya)larning tarkibi dizayni o'xshashligi, lekin materiallar, badiiy va rang dizayni bilan farq qiladigan bir xil turdagi mahsulotlarni o'z ichiga oladi. O'smirlar uchun tikuv va trikotaj buyumlarni tasniflashda xom ashyo va materiallar, pardoqlash dizayni va xarakteri, ishlab chiqarish usuli va o'lchamlari hisobga olinadi.



Sanoat va savdo tasniflari qo'llaniladi, ular tikuv va trikotaj buyumlar uchun narx varaqalarida keltirilgan va sanoat tasniflarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. O'smirlar uchun kiyim-kechak assortimentini qo'llanilishi bo'yicha tasniflash, shuningdek, kiyim-kechak assortimentini o'rganish uchun qulay bo'lgan sanoat va savdo tasniflarining asosiy xususiyatlariga ko'ra muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'smirlar kiyim-kechaklari umumiy maqsadiga ko'ra maishiy (uy kiyimlari), sport, ishlab chiqarish va formaga bo'linadi.

Uy kiyimlari. Ushbu kiyim ko'p funksiyali bo'lib, zarur xizmat ko'rsatish talablariga javob berishi kerak: moda, chiroyli, zamonaviy, sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan, qulay bo'lishi, inson tanasining o'lchamiga mos kelishi va foydalanish muddati davomida iste'mol xususiyatlarini saqlab qolish.

Sport kiyimi. Jismoniy mashqlarni bajarish uchun maksimal qulayliklar yaratish uchun mo'ljallangan. Sanoat kiyimlari. Insonni salbiy ishlab chiqarish omillari va ifloslanishdan himoya qiladi. Maqsadga ko'ra, o'smirlar kiyimlari kiyim-kechak kundalik, tantanali, uy, ochiq havoda va sport uchun bo'linadi.



Qulay, qo'llashga chidamli, pishiq bo'lishi kerak: ishbilarmonlik, klassik yoki sport uslubida o'rtacha miqdordagi bezaklar bilan tayyorlanadi. Bu kiyim qulay, gigiyenik talablarga javob beradigan va zamonaviy shaklga ega bo'lishi kerak.

Tantanali kiyimlar. O'smirlar kiyimlari "fantaziya" uslubining turli shakllari yoki uning romantik, folklor, shuningdek, qat'iy klassik variantlari ishlab



chiqilmoqda. Ushbu kiyimlarning asosiy vazifasi bezak – insonning tashqi ko'rinishi va bayramona kayfiyatni yaratishdir.

Uy sharoitida ishlash uchun ishlatiladigan o'smirlar kiyimlari turli vazifalarni bajarish uchun qulay bo'lishi kerak. Uy sharoitidan tashqari uchun kiyimning shakli va dizayni; ishlatiladigan materiallar bilan bir qatorda, insonga maksimal qulaylikni ta'minlashi kerak. Ochiq havoda kiyish uchun kiyim-kechaklarga kostyumlar, shimlar, ko'ylaklar, yubkalar, kurtkalar, kombinezonlar kiradi. Model-konstruktiv xususiyatiga ko'ra, o'smirlar kiyimlari kostyum va libos mahsulotlari, ichki kiyim, paypoq, ro'mol va sharf va bosh kiyimlarga bo'linadi. Qo'llash shartlariga o'smirlar kiyimlari ko'ra – ustki, yengil, korset mahsulotlariga bo'linadi. Mavsum bo'yicha o'smirlar kiyimlari – yozgi, qishki mavsumiy kiyimlarga bo'linadi.

Jins va yosh bo'yicha o'smirlar kiyimlari o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun mo'ljallangan kiyimlarga bo'linadi. Amaldagi materiallarga ko'ra – mato, trikotaj, noto'qima materiallar, tabiiy va sun'iy teri va mo'yna, murakkab, plyonkali materiallardan tayyorlangan kiyimlar. Tayanch nuqtasiga ko'ra o'smirlar kiyimlari yelkada turadigan va belda turadigan kiyimlarga bo'linadi.

Demak, o'smirlar kiyim-kechaklari assortimenti keng qamrovli bo'lib, turli jihatlari bo'yicha sinflarga ajratiladi. Ularning zamonaviy, transformatsiya-lanadigan, ko'p funksiyali ko'rinishlarini ishlab chiqarish mazkur yoshdagi bolalarning talabini qondirishga olib keladi. Dizayner va tikuvchilarimiz oldidagi dolzarb masala sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Практикум по моделированию и конструированию одежды: учебное пособие / под ред. В.Кузьмичева. – Иваново: ИВГПУ, 2014. –. 576 с.
2. Рефераты по промышленности и производству “Разработка коллекции моделей одежды для подростков” / <https://xreferat.com/76/1779-1-razrabotka-kollekcii-modeleiy-odezhdy-dlya-podrostkov.html>
3. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды [Текст]: учебное пособие / В.В., Ермилова, Д.Ю.Ермилова – М.:Академия, 2000, 490с.
4. Sharifovna, T.Z., & Bakhriniso, T. Modernization of higher education by solving integration problems.
5. Sharifovna, T.Z., Khamidovna, S.K., Bakhtiyorovna, T.B., & Fakhritdinovna, M.S. (2020). Improving Higher Education Through Integrated Learning, Features Of An Integrated Lesson. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
6. Ubaydova, V.E. Naqshbandiya's teaching about the need for a halal bite is a means of increasing (strengthening tool) the ability to produce exports and products

of light industry. Fundamental and applied scientific research in the field of inclusive design and technology: experience, practice and prospects, 174.

7. Tukhtayeva, Z. S. Modern embroidery machines of zigzag stitching / Z. S. Tukhtayeva, H. I. Radzhabova. — Text : direct // Young scientist.. — 2015. — № 9 (89). — P. 317-319. — URL: <https://moluch.ru/archive/89/17752/> (дата обращения: 11.10.2022).

8. https://studbooks.net/2512298/tovarovedenie/klassifikatsiya_detskoy_odezhdy_n_oznacheniyu



ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НАВЛАРИНИ ПАРВАРИШЛАШДА ҚАНДАЛАЛАР ЗАРАРИГА АГРОТЕХНИК ТАДБИРЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

Бобоева Нодира Тўхтамишовна,

мустақил тадқиқотчи,

Термиз Давлат университети,

Негматова Сурайё Тешаевна,

Қишлоқ хўжалиги фанлари доктори,

Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий

тадқиқот институти

E-mail: snegmatova1973@gmail.com

Аннотация: Мақолада Республиканинг жанубий минтақаси Сурхондарё вилоятининг пахтачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида ингичка толали ғўза навларини парваришлашда ғўза экинига катта зарар етказадиган ўсимликхўр қандалалар зарарига қарши такомиллашган агротехник тадбирлардан – кўчат қалинлиги ва чилпиш усуллари таъсири баён қилинган бўлиб, ғўзада мақбул кўчат қалинлигида кимёвий чилпиш ўтказилганда ўсимликхўр қандалага бардошлиги кўчайиб, қандала билан зарарланиш даражаси чилпиш ўтказилмаган вариантга нисбатан 4,9% кам бўлиши илмий асослаб берилган.

Калит сўзлар: қандала, ғўза, кўчат қалинлиги, чилпиш усуллари, ҳосилдорлик.

THE INFLUENCE OF AGROTECHNICAL MEASURES ON THE DAMAGE OF BOILERS IN THE CULTIVATION OF STRONG COTTON VARIETIES

Boboeva Nodira To‘xtamishovna,
independent researcher, Termiz State University

Negmatova Surayyo Teshaeвна,
doctor of agricultural sciences
Cotton Breeding, Seed Production and Agrotechnologies Research Institute,
E-mail: snegmatova1973@gmail.com

Abstract: The article describes the effect of improved agrotechnical measures against the damage of herbivorous caterpillars, which cause great damage to the cotton crop in the farms specializing in cotton growing in the Surkhondarya region of the southern region of the Republic - seedling thickness and thinning methods. increased resistance to herbivores when chemical spraying was carried out the degree of damage to the candala is 4.9% less compared to the non-chilling option is scientifically justified.

Key words: candala, cotton, seedling thickness, pruning methods, productivity.

Дунё миқёсида юз бераётган иқлим ўзгаришлари ва антропоген омиллар агроценозларда фаунистик компонентларнинг салбий таъсир даражаси ўзгариши ҳамда янги зараркунандаларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлмоқда. Айниқса, охириги 10-15 йилда зарарли қандалаларнинг *Creontiades*, *Lygus* ва *Apolygus* авлодига мансуб 20 га яқин тури пахтачилик ривожланган АҚШ, Австралия, Хитой, Ҳиндистон, Конго, Судан ва Миср каби қатор давлатларнинг ғўза агроэкоотизимларида кенг тарқалиб, ҳосилдорликка катта зиён етказмоқда. [6].

Республикамизда ҳам сўнги йилларда ғўза майдонлари қисқартирилишига қарамасдан унда учрайдиган зараркунандаларнинг зарари ортиб бормоқда. Чунки, мамлакатимизда ғўза майдонларида зараркунандаларнинг ривожланиши ва тарқалишига қулай шароит мавжуд. Ғўза агробιοценозидаги бундай ҳолат айрим зараркунанда турларининг ортиб боришига олиб келмоқда.

Қандала дастлаб ёш барглари, гул ғунчаларини кучли зарарлайди, сўнгра шона, гул ва ҳосил тугунчаларини, пишиб етилмаган уруғларни, ўсув нуқта ва пояни кучли зарарлайди. Бир ёшдаги ёш личинкалар ўсимликнинг пастки ярусидagi ўсимлик қисмларини зарарлайди. II ёшдаги авлоди ўсимликнинг юқори қисмини ва катта ёшдаги личинкалар, ўсимликнинг ҳосил органларини зарарлайди [5].

Сурхондарё вилояти шароитида кимёвий чилпиш ўтказиш яхши натижа бериб, қўлда чилпиш ўтказилганга нисбатан 5.0-4.1 ц\га қўшимча ҳосил олинганлиги аниқланган [2].

Чилпиш ўтказиш муддати ҳудуднинг об-ҳаво шароитига, кўчат қалинлигига, ғўзанинг ривожланишига ва навига қараб ўзгариши мумкин. Кўчат қалинлиги 140-160 минг туп бўлса, 12-14 ҳосил шоҳида; 80-90 минг туп бўлса 16-17 ҳосил шоҳида чилпиш ўтказиш мақсадга мувофиқ [4].

Ғўзада чилпиш билан бирга Энтожеан препарати қўлланилганида бир туп ўсимликда 20.8 дона ҳосил элементлари бўлиб, шундан 1.3 донаси яъни, ҳосил элементларининг 6.8% и қандала билан зарарланган. Ўсимликда фақатгина чилпиш ўтказилганда 20 дона ҳосил элементлари бўлиб, шундан 7.85% қандала билан зарарланган. Ғўзада умуман чилпиш ўтказилмаганда эса 17.5 дона ҳосил элементи бўлиб, зарарланганлари 3.7 донани, яъни 21.8% ни ташкил этган [1].

Юқоридаги муаммоларни ҳал этиш учун ғўза навларини тўғри жойлаштириш, сифатли ва тола чиқими юқори бўлган навларни экиш, юқори агротехник тадбирларни ўз вақтида ўтказиш, қандалаларнинг тарқалиши, зарар келтириш хусусиятларини изоҳлаш ҳамда зарарли турларига қарши самарали

агротехник кураш усуллари ишлаб чиқиш муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади.

Ғўзанинг ўсиши ва ривожланишига тупроқ унумдорлиги, экиш муддати ва меъёрлари, суғориш, озиклантириш, қатор орасига ишлов, чилпиш усуллари, дефоляция муддати ва меъёрлари, ғўзанинг касалликлари ўз таъсирини кўрсатади. Олиб борилган илмий изланишларимизда кўчат қалинлиги, чилпиш усуллари ғўзани ўсимликхўр қандалалар билан зарарланиш даражасига таъсири ўрганилди.

Таҷрибада ғўзанинг ингичка толали “Сурхон-103” нави экилиб, 2 хил кўчат қалинлигида (120-130 ва 140-150 минг туп\га) ғўзага чилпиш ўтказилмаган, чилпиш ўтказилган ва энтожеан билан чилпиш ўтказилган вариантларда ўсимликхўр қандала билан зарарланиш даражаси бўйича кузатувлар олиб борилди (1-жадвал).

1-жадвал

Ғўза ҳосил элементларининг қандала билан зарарланиш даражаси

№	Кўчат қалинлиги, минг туп\га	Чилпиш усуллари	Ҳосил элементлари, дона	Зарарланган ҳосил элементлари, дона	Зарарланиш фоиз ҳисобида, %
15.09. 2020 й.					
1	120-130	Чилпиш ўтказилмаган	20.0	2.1	10.5
2		Чилпиш ўтказилган	21.6	1.6	7.4
3		Энтожеан қўлланган	23.0	1.3	5.6
4	140-150	Чилпиш ўтказилмаган	16.3	2.4	14.7
5		Чилпиш ўтказилган	18.0	2.0	11.1
6		Энтожеан қўлланган	20.5	1.3	6.3

Ғўзани ўз вақтида чилпиш ҳосил нишонларини сақланиб қолишини, ҳосил салмоғини ортишини таъминлаб, тола сифатини яхшиланишига олиб келса, уни кечиктириб ўтказиш ёки умуман ўтказмаслик ғўзалар сербарг бўлиб,

кўсақларнинг қобиғи қалинлашиб, пишиб етилиши 7-10 кунга кечикиши мумкин. Шунингдек, кимёвий чилпиш ўтказилганда ғўза тупи ихчам арчасимон шаклга кириб, қатор орасидаги ҳаво алмашинуви яхшиланади. Натижада биринчи терим салмоғи 5-6 центнерга ошиб, ҳосилни қисқа муддатда йиғиштириб олишга эришилади [3].

Тажрибада ғўзанинг “Сурхон-103” нави гектарига 120-130 минг туп кўчат қолдирилиб, чилпиш ўтказилмаган, чилпиш ўтказилган ва энтожеан билан кимёвий чилпиш ўтказилган вариантларда ғўзани ўсимликхўр қандалага бардошлиги аниқланганда юқори натижа кимёвий чилпиш ўтказилган вариантда кузатилди. 15 сентябрдаги кузатув натижаларига кўра, ғўзада ҳосил элементлари 20.0-23.0 донагача бўлиб, шундан 1.3-2.1 донаси қандала билан зарарланган. Қандала билан энг кўп зараланиш ғўзада чилпиш ўтказилмаган вариантда кузатилиб, қўлда чилпиш ўтказилган вариантга нисбатан 3.1% ва кимёвий чилпиш ўтказилган вариантга нисбатан 4.9% кўп зарарланган.

Кўчат қалинлиги юқори бўлганда ғўзани сув ва озикадан фойдаланиш кўрсаткичи камайиб, пахтадан 15-20% гача кам ҳосил олинади. Тажрибада ҳам пахта ҳосили кўчат қалинлигига мос ҳолда гектарига 120-130 минг туп бўлганда 29.2-33.6 ц\га бўлса, кўчат қалинлиги 140-150 минг туп\га гача оширилганда 27.4-31.2 ц\га бўлиб, кўчат қалинлигини ошиши билан пахта ҳосилдорлиги 1.8-2.4 ц\га га камайганлиги кузатилди.

Демак, ингичка толали ғўза навларидан юқори пахта ҳосили олиш ва уни қандала зарарига бардошлигини ошириш учун гектарига 120-130 минг туп кўчат қолдириб, кимёвий чилпиш ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса. Республикамизнинг жанубий минтақаси Сурхондарё вилоятининг тақир ўтлоқи тупроқлари шароитида ғўзага зарар етказадиган ўсимликхўр қандалаларга қарши такомиллашган агротехник тадбирлардан мақбул кўчат қалинлиги ҳамда чилпиш усули ўз вақтида сифатли ўтказилганда ўсимликхўр қандалалар сони камайиши, пахта ҳосилдорлиги ошиши кузатилди. Ингичка толали ғўза навларидан юқори ва сифатли пахта ҳосили олиш ва

ўсимликхўр қандалаларга бардошлилигини ошириш учун уни гектарига 120-130 минг туп қўчат қалинлигида парваришлаб, кимёвий (энтожеан қўллаб) чилпиш ўтказиш тавсия этилади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Бобоева Н.Т., Негматова С.Т. Effects of agrotechnical measures on the number of plant-eating candles and cotton yield. «Аграрная наука» научно-теоретический и производственный журнал. 11-12. 2020. С.-122-124. DOI 10.32634/0869-8155
2. Жураев Б. Кимёвий чилпишнинг самараси. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. №3, 2000. 22-23 б.
3. Назаров Р.С. Ғўзани чилпиш самараси. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. №7, 2017. 8 б.
4. Шайхов Э.Т., Нормухамедов Н., Шлейхер А.И., Азизов Ш.Ф., Лев В.Т., Абдурашидова Л.Х. Пахтачилик.-Тошкент: Мехнат, 1990. 238-295 б.
5. Boboeva N.T., Negmatova S.T. Effects of Improved Agrotechnical Measures on Harmful Harvesting of Medium-Fiber Cotton Varieties. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. SJIF Impact Factor (2021): 5.256. Vol. 2 (2021): TJM. Published: Nov 5, 2021. Pp-25-28.
6. Wheeler A.G. Biology of the Plant Bugs (Hemiptera: Miridae): Pests, Predators, Opportunists. –New York, 2001. –507 pp

ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ТАЙЁРЛИГИНИ БАҲОЛАШ

Б.Кўчқоров,

Тошкент шаҳридаги Аджу университети

Аннотация

Рақамли иқтисодиёт учун кадрлар тайёрлаш тизими уни ривожлантиришнинг асосий манбаи бўлиб, ривожланган олий ва касб-хунар таълими тизими мавжудлигига қарамай, рақамли иқтисодиёт мақсадларига эришиш учун янги таълим лойиҳалари яратилди. Олий таълимнинг рақамли иқтисодиётга тайёрлигини баҳолаш бўйича ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, фақат айрим университетлар автоматлаштириш, ахборотлаштириш босқичларидан ўтиб, рақамли иқтисодиёт сари ишонч билан бормоқда.

Калит сўзлар: Рақамли иқтисодиёт, таълим, олий таълим, ахборот инфратузилмаси, электрон таълим.

Рақамли иқтисодиётни шакллантириш йўналиши сўнгги бир неча йил ичида ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг глобал тенденциясига айланди. Рақамли иқтисодиётнинг салоҳияти кўп жihatдан ахборотли жамиятини яратиш ва ривожлантириш натижалари билан боғлиқ. Ахборот жамияти соҳасида давлат сиёсатини қабул қилиш муддатидан қатъи назар, рақамли иқтисодиётнинг истиқболлари мавжуд инфратузилма, жумладан, унинг ҳисоблаш қуввати, алоқа линиялари ва мазмундан фойдаланиш орқали янги иқтисодий самараларга эришиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги 824-сонли “Олий таълим муассасаларида таълим жараёнини ташкил

этиш билан боғлиқ тизимни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2020 йил 27 октябрдаги “Олий таълим муассасаларини нуфузли хорижий олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда трансформация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли, 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон қарорлари, 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” фармони ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда устувор вазифалар белгиланган.

Мазкур йўналиш доирасида, асосан, рақамли иқтисодиётни ривожлантириш талабларига жавоб берадиган ва рақамли компетенцияларга эга бўлган кадрларни тайёрлаш бўйича вазифалар белгиланди.

Албатта, рақамли иқтисодиёт учун кадрлар тайёрлаш тизими уни ривожлантиришнинг асосий манбаи, яъни иқтисодиётнинг турли тармоқларида рақамли маълумотларни қайта ишлаш алгоритмларини яратувчи ва қўллайдиган, юқори технологияли товарлар ва хизматлар яратувчи, инновацияларни жорий етувчи мутахассисларни тайёрлашдир. Ривожланган олий ва касб-ҳунар таълими тизими мавжудлигига карамай, рақамли иқтисодиёт мақсадларига эришиш учун янги таълим лойиҳалари яратилди. Яратилган таълим ва илмий-тадқиқот тузилмалари бошқарув ва таълим дастурлари жиҳатидан давлат университетларидан тубдан фарқ қилади.

Олий таълимнинг роли рақамли иқтисодиётни тегишли таълим ва тадқиқот дастурлари ва кадрлар билан таъминлашдан иборат. Акс ҳолда, рақамли иқтисодиётнинг таълим ва тадқиқот вазифалари хусусий секторга, энг яхши ҳолатда нодавлат ташкилотларига, ёки рақамли таълим платформаларига ўтади.

Таълимнинг рақамли иқтисодиётга тайёрлигини баҳолаш қуйидаги кўрсаткичлар гуруҳлари бўйича амалга оширилади:

- таълим жараёнида ахборот технологияларини қўллаш;
- таълимда ахборот технологияларидан фойдаланиш бўйича педагог кадрларни тайёрлаш;
- таълим бошқарувини ахборотлаштириш;
- таълим фаолиятининг ахборот инфратузилмаси;
- таълимни рақамлаштиришни меъёрий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш.

Тадқиқот расмий статистика, эксперт баҳолари ва профессионал ҳамжамият маълумотлари асосида Жаҳон банки томонидан таклиф этилган мезонларни ҳисобга олган ҳолда ўтказилади.

Рақамли таълимнинг зарур рақамли компетенцияларни ўрганиш, рақамли иқтисодиёт учун инсон капиталини тайёрлаш жараёни сифатида умумий талқини ушбу концепцияни мавзу соҳасига - рақамли технологияларга қисқартиради. Ҳозирги вақтда ахборот ва рақамли технологиялар ўртасида аниқ чегарани аниқлаш қийин, чунки АТ ривожиди янги босқич пайдо бўлмоқда ва шаклланимоқда. Кўпинча, рақамли технологиялар деганда АТ нинг баъзи бир тўплами тушунилади, масалан, рақамли платформа ёки АТ, улар учун янги қўллаш соҳалари топилган, масалан, сунъий интеллект ёки қўшимча технологиялар. Жамиятда яратилган телекоммуникация тармоқлари, ҳисоблаш қуввати, контент ҳажмидан иборат ахборот инфратузилмаси АТ дан кенг фойдаланиш учун замин яратади. Умуман олганда, рақамли иқтисодиёт ва таълимда АТ дан фойдаланишнинг янги даражасини тавсифлайди. 1990 йиллардан бошлаб жамиятни ахборотлаштиришнинг фаол босқичининг бошида “электрон бизнес” тушунчаси пайдо бўлди, яъни бизнес алоқаларини интернет тармоғига ўтказиш. Шундан сўнг “электрон тижорат”, “электрон таълим”, “электрон ҳукумат” ва ҳоказо тушунчалар пайдо бўлди. Электрон бизнес ва индивидуал веб воситалари узоқ вақт давомида глобал инновация

сифатида қаралмаган. Ҳақиқатан ҳам, электрон алоқа хизматлари ахборот-иқтисодий фаолиятда стандартга айланди, жумладан, таълим ҳам.

Ахборотлаштиришнинг кейинги ривожланиши АТ билан эмас, балки ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилишда улардан фойдаланишнинг янги усуллари билан боғлиқ. Ушбу янги усуллар жамият томонидан тўпланган ахборот технологиялари миқдорини қабул қилинадиган қарорлар, кўрсатиладиган хизматлар, ресурсларни бошқариш ва бошқаларнинг янги сифатига ўтказишни таъминлаши керак. Бир қатор олимлар ахборотлаштириш ривожининг янги босқичини “ақлли” деб белгилаб, “ақлли шаҳарлар” мисолида фуқаролар учун хавфсизлик ва қулайликнинг янги даражасини таъминлашда АТ ютуқларига ишора қилмоқдалар.

Жамиятда замонавий АТ дан фойдаланишда учта асосий босқични ажратиш мумкин: автоматлаштириш, ахборотлаштириш ва рақамлаштириш АТ ривожланиши ва ишлаб чиқариш ва бошқарув жараёнларига кириб бориши билан аввал индивидуал функциялар ва операциялар, кейин эса корхоналар ўзгартирилди.

Олий таълимнинг АТ инфратузилмаси қандай бўлиши лозим. Рақамли иқтисодиёт шароитида олий таълим соҳасига иқтисодиётнинг тармоқ сифатида қаралиши керак, унда рақамлаштиришнинг афзалликлари ҳам мавжуд бўлиши керак. Сўнги ўн йилликларда давлат органлари таълим тизимини ахборотлаштириш сиёсатини олиб борди. Айти пайтда “ Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”¹ таълим жараёнига рақамли технологиялар ва замонавий усулларни жорий этиш бўйича

“... рақамли иқтисодиёт учун юқори малакали муҳандис-техник кадрлар тайёрлаш тизимини ташкил этиш;

замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва таълим технологияларининг мустаҳкам интеграциясини таъминлаш, бу борада педагог

¹ <https://lex.uz/docs/4545884>

кадрларнинг касбий маҳоратини узлуксиз ривожлантириб бориш учун қўшимча шароитлар яратиш;

таълим жараёнларини рақамли технологиялар асосида индивидуаллаштириш, масофавий таълим хизматларини ривожлантириш, вебинар, онлайн, «blended learning», «flipped classroom» технологияларини амалиётга кенг жорий этиш;

замонавий ахборот-коммуникация технологиялари асосида масофавий таълим дастурларини ташкил этиш;

маъруза ва амалий машғулотлар, семинарларни онлайн кузатиш ва ўзлаштириш имконини берувчи, шунингдек уларни электрон ахборот сақловчиларга юкловчи «E-MINBAR» платформасини амалиётга жорий этиш, таълим жараёнларида «булутли технологиялар»дан фойдаланиш;

масофадан туриб фойдаланиш имконини берувчи электрон кутубхона тизимини кенг жорий этиш, талабаларнинг олий таълим муассасасида ўқишни тамомлаганларидан сўнг кутубхона фонди, ахборот базаларидан фойдаланишини йўлга қўйиш орқали уларнинг касбий малакасини узлуксиз ошириб бориш имкониятларини кенгайтириш;

миллий электрон таълим ресурслари яратилишини жадаллаштириш, хорижий электрон таълим ресурсларини таржима қилиш ишларини ташкил этиш, таълим жараёнида электрон ресурслар салмоғини босқичма-босқич ошириб бориш, электрон ўқув адабиётлар яратиш, уларни мобил қурилмаларга юклаб олиш мақсадида кутубхоналарда QR-код ёрдамида электрон ресурслар ҳақидаги ахборотларни жойлаштириш тизимини яратиш;

олий таълим муассасасининг конференция материаллари, битирув-малакавий ишлар, магистрлик ва докторлик диссертацияларидан иборат илмий-техник маълумотлар электрон базасини яратиш, келгусидаги илмий-техник маълумотлар янгилегини таъминлаш мақсадида антиплагиат тизимидан фойдаланишни кенг жорий этиш;

таълим йўналишлари ва мутахассисликларининг ўзига хослигидан келиб чиқиб, таълим жараёнида халқаро миқёсда кенг қўлланиладиган замонавий дастурий маҳсулотлардан фойдаланишни ривожлантириш;

олий таълим муассасаларидан олинган турли ҳисобот ва маълумотлар сонини кескин камайтириш, уларни тайёрлашнинг қоғоз шаклидан воз кечиш, бошқарув тизими ва ўқув жараёнлари, кутубхона ва ҳужжатлар айланмасини электронлаштиришни таъминловчи «Электрон университет» платформасига босқичма-босқич ўтиш, таълим жараёни иштирокчилари фаолияти самарадорлигини мониторинг қилишнинг электрон тизимини жорий этиш;

олий таълим муассасалари педагог ходимлари, бакалаврият, магистратура талабалари ва докторантларига оид маълумотларни ўзида акс эттирувчи ва мунтазам янгиланиб боровчи электрон база (Student Record System) юритилишини йўлга қўйиш асосида унинг миллий тизимини яратиш;” каби устувор вазифалар белгилаб олинган.

Университетларимизда ўқув жараёнида АТ дан фойдаланиш амалиёти масофавий таълим нуктаи назаридан кўриб чиқилади. Маъруза материалларини ишлаб чиқиш ва намойиш қилишда шахсий компютерлар ва проекторлардан фойдаланиш маъносида эмас, балки таълим технологиялари ва электрон таълим кўринишида. Талабаларга улардан фойдаланишни ўргатиш амалиёти асосан аралаш таълим шаклида талабаларнинг фақат учдан бир қисмига тааллуқлидир. Онлайн таълим дастурлари асосан нодавлат таълим муассасалари томонидан тақдим этилади, уларнинг онлайн таълим сегментидаги улуши юқори. Университетлар яратилган рақамли таълим муҳитини ўзларининг таълим маҳсулотлари, интерактив контентлари, ўзаро алоқаси воситалари ва талабаларнинг лойиҳа фаолияти билан тўлдиришлари керак, шунда рақамли иқтисодиётнинг афзалликлари улар учун мавжуд бўлади.

Олий таълимнинг рақамли иқтисодиётга тайёрлигини баҳолаш бўйича ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, фақат айрим

университетлар автоматлаштириш, ахборотлаштириш босқичларидан ўтиб, рақамли иқтисодиёт сари ишонч билан бормоқда. Аксарият университетлар ахборотлаштиришнинг дастлабки босқичида, бу университетнинг АТ инфратузилмасини шакллантириш, ўқув ва маъмурий жараёнларни автоматлаштиришни назарда тутди. Рақамли иқтисодиётни, шунингдек, рақамли иқтисодиёт тармоғи каби кадрлар тайёрлаш орқали шакллантиришда тўлиқ иштирок этиш учун университетларни ахборотлаштириш соҳасида қўллаб-қувватлаш чораларини кўриш зарур. АТ инфратузилмасининг ҳозирги ривожланиш даражаси университетларнинг маъмурий ва ўқув жараёнлари етарли даражада ахборотлаштирилмаганлигидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ш. М. Мирзиёев – Тошкент : Ўзбекистон. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз
2. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ 2030 ЙИЛГАЧА РИВОЖЛАНТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСINI ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДА. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон. <https://lex.uz/docs/4545884>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори. – Тошкент, 2017 йил 21 апрель. Манба: <http://press-servis.uz>.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 июлдаги Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-3832-сонли қарори.
5. Абдурахманова Г.И., Вишнеvский К.О., Волкова Г.Л. , Гохберг Л.М. и др Индикаторы цифровой экономики: 2018 : статистический сборник ./; И60 Нац. исслед.ун-т «Высшая школа экономики». – М.: НИУ ВШЭ, 2018. – 268 с. – 300 экз. – ISBN 978-5-7598-1770-3.

МУҲАНДИСЛИК КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИ ЛОЙИХАЛАШ ВА ҚУРИШДАГИ МУАММОЛАР

Сапаров.Ш.Ш.

Ассистент ўқитувчи, Термиз муҳандислик-технология институти

Рўзиқулов.Р.Э.

Термиз муҳандислик-технология институти талабаси

Аннотация

